| YASHIL IQTISODIYOT – MAMLAKAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI..... | 605 |
| Oybek Hamdamov, Qosimov Jahongir | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON KAPITALI SIFATINI OSHIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI | 608 |
| M.Ostanova, Ro'ziyev Ramshid | |
| MODERN LEGAL BASIS FOR THE EFFICIENT USE OF FINANCIAL RESOURCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN OUR COUNTRY | 613 |
| Ismoilova Gulrux, Khayriddinov Shukhrat Botirovich | |
| YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TABIIY - IQTISODIY MANBAALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY MEXANIZMI | 617 |
| Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li, Mavlonova Surayyo Xasan qizi | |
| YANGI O'ZBEKISTONDA SOHALARNI RAQAMLASHTIRISH SAMARADORLIGI | 621 |
| Gulrux Arslon qizi Ismoilova | |



QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY INTEGRATSIYA

Xushvaqto Ramziddin

Qarshi davlat universiteti talabasi

E-mail: xushvaqtoqramziddin498@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-0564-5067>

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda Qashqadaryo viloyatida turizm klasterlarini rivojlantirish va iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati tahlil qilingan. Viloyatning tabiiy va madaniy resurslaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni jalb etish hamda turizmning iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari turizm infratuzilmasini rivojlantirish va hududiy iqtisodiyotni barqarorlashtirishga xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: turizm klasterlari, iqtisodiy integratsiya, model, madaniy-tarixiy turizm, ekoturizm, transport, logistika, qishloq xo'jaligi, multiplikativ ta'sir, transchegaraviy hamkorlik.

Abstract: This study analyzes the development of tourism clusters and the significance of economic integration in the Kashkadarya region. It explores the effective use of the region's natural and cultural resources, the attraction of investments, and the impact of tourism on the economy. The findings highlight the necessity of developing tourism infrastructure and contributing to the stabilization of the regional economy.

Key words: tourism clusters, economic integration, model, cultural-historical tourism, ecotourism, transport, logistics, agriculture, multiplier effect, cross-border cooperation.

Аннотация: В данном исследовании анализируется развитие туристических кластеров и значение экономической интеграции в Кашкардарьинской области. Рассматриваются эффективное использование природных и культурных ресурсов региона, привлечение инвестиций и влияние туризма на экономику. Результаты подчёркивают необходимость развития туристической инфраструктуры и стабилизации региональной экономики.

Ключевые слова: туристические кластеры, экономическая интеграция, модель, культурно-исторический туризм, экотуризм, транспорт, логистика, сельское хозяйство, мультипликативный эффект, трансграничное сотрудничество.

KIRISH

Global iqtisodiy tizimda klasterlash strategiyasi hududiy iqtisodiy rivojlanishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi [11]. Shu bois, yurtimizda turizm klasterlarini tashkil etishni yanada kengaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasining *Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash* yo'nalishida turistik klasterlarni tashkil etish tartibini va ularning huquqiy maqomini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Shu asosda "Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qonun loyihasi ishlab chiqilgan [1].

Turizm klasterlari – bu geografik jihatdan yaqin joylashgan, o'zaro bog'langan turistik xizmat ko'rsatish subyektlari va infratuzilma elementlarining majmuasi bo'lib, hududning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [12]. Qashqadaryo viloyati o'zining tabiiy, madaniy va tarixiy resurslari bilan turizm klasterlarini shakllantirish uchun qulay sharoitlarga ega. Turizm klasterlarini rivojlantirish orqali agregat talab va taklif o'rtasidagi muvozanat ta'minlanib, viloyatda multiplikativ effekt yuzaga keladi. Ya'ni, turizm sohasi rivojlanishi



natijasida boshqa tarmoqlar – transport, qurilish, chakana savdo, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi tarmoqlari ham iqtisodiy ko'paytirish ta'siriga ega bo'ladi [13].

Iqtisodiy integratsiya esa turizm sanoatini milliy va xalqaro darajada bog'lash orqali hududning global turizm bozorida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. U turizm orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, aholi daromadlarini oshirish, sanoatni qayta tashkil etish va bandlik muhitini yaxshilashga xizmat qilishi mumkin [14].

Turizm klasterlari doirasida iqtisodiy integratsiyani amalga oshirish natijasida transchegaraviy turizm oqimlarini jalb qilish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (FDI) ko'paytirish hamda innovatsion biznes modellarini joriy etish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, turizm klasterlarining samarali ishlashi uchun mezoiqtisodiy muhit barqaror bo'lishi zarur. Bunda davlat tomonidan soliq imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va institutsional islohotlarning amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu chora-tadbirlar viloyatda ishlab chiqarish omillarining samaradorligini oshirib, regional yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada, Qashqadaryo viloyatida turizm klasterlari va iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish orqali xususiy sektorni diversifikatsiya qilish, bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish imkoniyatlari kengayadi. Shu sababli, hududning turizm salohiyatidan maksimal darajada foydalanish uchun ilmiy asoslangan strategik reja ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

Turizm klasterlari va iqtisodiy integratsiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm sanoati hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Porter (1998) o'zining "*Competitive Advantage of Nations*" asarida klasterlarning samaradorligini ta'kidlab, tarmoq ichidagi o'zaro hamkorlik va ixtisoslashuvning ahamiyatini alohida ko'rsatib o'tadi [15]. Xalqaro tajribalar shuni isbotlaydiki, muvaffaqiyatli turizm klasterlari raqobatbardoshlikni oshirish va tarmoqlararo sinergiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [3].

Klasterlarni turizm sohasida shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon tabiiy ravishda vujudga kelishi yoki mahalliy hukumatlar tomonidan rejalashtirilgan strategik yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin (lordache va boshq., 2010) [4]. Bathelt, Malmberg va Maskellarning fikriga ko'ra, klasterlar ichida o'zaro hamkorlikdan avval, kompaniya ichida bilimlarni rivojlantirish va o'rganish jarayonlari muhim o'rin tutadi. Ularning fikricha, har qanday klasterni tashkil qilishdan avval, chuqur tahlil va diagnostika ishlari olib borilishi zarur [5].

Turizm klasterlashni joriy etish bir qancha afzalliklarni beradi:

Klasterdagi korxonalar o'zaro axborot almashadi va bu hamkorlik orqali raqobatbardoshlik va samaradorlik oshadi.

Klasterlar kompaniyalarga bozor ulushini kengaytirish, yangi bozorlarni topish, xarajatlarni kamaytirish va kadrlar ehtiyojini qoplashda yordam beradi.

Klasterda ishtirok etish natijasida kompaniyalar sinergiya asosida innovatsion yechimlar ishlab chiqadi va milliy iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shadi [16].

Klasterlar samarali faoliyat yuritishi uchun muhim omillardan biri – bu geografik yaqinlik hisoblanadi. Bu omil hamkorlikni mustahkamlab, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Hudud ichidagi kompaniyalar maxsus xizmatlar va resurslarga bo'lgan talabni kuchaytiradi, bu esa yetkazib beruvchilarning aynan shu hududda faoliyat yuritishiga rag'bat uyg'otadi [6].

Qashqadaryo viloyati turizm klasterlarini shakllantirish salohiyatiga ega, chunki viloyatning geografik joylashuvi, boy tabiiy resurslari va madaniy-tarixiy merosi bu borada muhim ustunliklarni taqdim etadi. Hududda tarixiy obidalar va turli xil sayyohlik obyektlarining mavjudligi ilmiy va amaliy jihatdan yangi turizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi [7].

Turizm klasterlari iqtisodiy samaradorlikni oshirib, rentabellikni ko'taradi va iqtisodiy integratsiyani jadallashtiradi. Bu jarayon qishloq va ekologik hududlarda qashshoqlikni kamaytirishga hamda infratuzilmani rivojlantirishga yordam beradi. Olimlar tadqiqotlarida qishloqni jonlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari, amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Natijada, turizm klasterlari qishloq hududlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. [8, 9] Shuningdek turistik klasterlashni amalga oshirish iqtisodiy integratsiyaning asosiy yo'nalishlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va bunda asosiy yo'nalishlar qilib :

Siyosiy talqin – Davlat siyosati va qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar.

Shahar-hududiy rivojlanish – Qishloq joylarining shahar bilan integratsiyalashuvi hamda urbanizatsiya jarayonlarining ta'siri.

Amaliy integratsiya – Qishloq xo'jaligi, turizm va kichik biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish.

Aholi motivatsiyasi – Mahalliy aholi ehtiyojlari, maqsadlari va qishloqni jonlantirish jarayonidagi ishtiroki.

[10]



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot Qashqadaryo viloyatida turizm klasterlarini rivojlantirish hamda iqtisodiy integratsiya jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida viloyatning turizm salohiyati, infratuzilma holati va klasterlashning iqtisodiy samaradorligi chuqur tahlil qilindi. Statistik tahlil asosida turizm xizmatlari hajmi, mehmonxona infratuzilmasi hamda bandlik darajasi o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Prezident qarorlari tahlil etilib, turizm klasterlarini rivojlantirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyati tabiiy, madaniy va tarixiy merosi boy hududlardan biri bo'lib, turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Mazkur hududda turizm klasterlarini yaratish orqali iqtisodiy integratsiyani ta'minlash, yangi ish o'rinlarini barpo etish hamda mahalliy aholining turmush darajasini oshirish imkoniyati mavjud. Bu jarayonni tahlil etishda hududda mavjud resurslarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy obidalar soni hududlar kesimida keltirilgan (1-jadval):

1-jadval. Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy obidalar sonini hududlar kesimida.

| Tuman/Shahar | Arxeologik yodgorliklar | Arxitektura yodgorliklari | Monumental san'at yodgorliklari | Diqqatga sazovor joylar |
|-------------------|-------------------------|---------------------------|---------------------------------|-------------------------|
| Qarshi shahar | 28 | 25 | 6 | 1 |
| Shahrisabz tumani | 138 | 22 | 5 | 0 |
| Yakkabog' tumani | 195 | 38 | 2 | 2 |
| Kitob tumani | 281 | 16 | 3 | 5 |
| G'uzor tumani | 94 | 9 | 3 | 3 |
| Koson tumani | 76 | 11 | 4 | 1 |
| Chiroqchi tumani | 58 | 16 | 3 | 2 |
| Shahrisabz shahri | 29 | 28 | 5 | 0 |
| Qarshi tumani | 58 | 29 | 28 | 5 |
| Kasbi tumani | 79 | 11 | 2 | 2 |
| Nishon tumani | 3 | 1 | 0 | 3 |
| Mirishkor tumani | 9 | 6 | 2 | 1 |
| Muborak tumani | 2 | 3 | 2 | 1 |

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqadigan bo'lsak, Qashqadaryo viloyati turizm resurslari jihatidan boy bo'lib, hududlar kesimida tarixiy, madaniy, arxitektura va diqqatga sazovor joylarning muayyan mintaqalarda to'planganligi kuzatiladi:

- Eng ko'p arxeologik yodgorliklar Kitob (281 ta) va Yakkabog' (195 ta) tumanlarida joylashgan.
- Arxitektura yodgorliklari soni bo'yicha Qarshi tumani (29 ta) va Shahrisabz shahri (28 ta) yetakchilik qiladi.
- Qarshi tumani monumental san'at yodgorliklari (28 ta) bilan ajralib turadi.
- Diqqatga sazovor joylar esa Kitob va Qarshi tumanlarida (har birida 5 tadan) ko'p uchraydi.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyati rekreatsion resurslarga, jumladan, shifobaxsh buloqlar, dam olish maskanlari, sanatoriyalar va suv omborlariga boyligi bilan ajralib turadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda Respublikadagi jami tarixiy obidalarining 17,76 foizi joylashgan. Bugungi kunda viloyatda jami 1 468 ta madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, ular quyidagicha taqsimlangan:

- 1 189 tasi arxeologiya,
- 208 tasi arxitektura,
- 43 tasi monumental yodgorliklar,
- 34 tasi diqqatga sazovor joylar.

Qashqadaryo viloyatining turistik salohiyatini yanada oshirish maqsadida quyidagi klasterlar shakllantirilishi maqsadga muvofiq:

Shahrisabz madaniy-tarixiy klasteri – Amir Temur va Temuriylar davriga oid yodgorliklar (Oqsaroy, Dorus-Saodat, Dorut-Tilovat majmualari), hunarmandchilik va milliy xizmat turlarini rivojlantirish orqali hududning tarixiy brendini shakllantirish.

Ekoturizm va tog'-sport klasteri – Kitob va Yakkabog' tumanlarida joylashgan Hisor tog' tizimi, Kitob geologik qo'riqxonasi, Palandara sanatoriysi hamda boshqa ekologik maskanlar asosida tog' va ekoturizmni rivojlantirish.



Suv va sog'lomlashtirish turizmi klasteri – Muborak va Koson tumanlaridagi issiq buloqlar, “Tolimarjon”, “Nog’ayli”, “Qamashi” kabi suv omborlarida dam olish va sport faoliyatlarini tashkil etish.

Mazkur klasterlar Qashqadaryo viloyatining tabiiy-geografik joylashuvi, iqtisodiy imkoniyatlari hamda turistik oqimlar darajasini inobatga olgan holda shakllantirildi. Shu bilan birga, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan “Hisor” davlat qo‘riqxonasi hududidan Amir Temur g‘ori, dinozavr izlari, Hazrati Sulton ota ziyoratgohi va Suvtushar sharsharasi kabi obyektlarni qo‘riqlanma (bufer) zonasiga kiritish va aniq chegaralarini belgilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ushbu hududning turizm salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi [2].

Bundan kelib chiqib, turizm klasterlarini quyidagi iqtisodiy tarmoqlar bilan integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi:

- transport va logistika,
- oziq-ovqat sanoati,
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish,
- hunarmandchilik va mahalliy xizmat ko‘rsatish sohalari.

Mazkur yondashuv nafaqat turizm tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi, balki butun viloyat iqtisodiyotining kompleks o‘shishiga ham xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi – mahalliy dehqonchilik mahsulotlaridan foydalanish va agro-turizmni rivojlantirish.

Hunarmandchilik va milliy sanoat – gilamchilik, kulolchilik, yog‘och o‘ymakorligi mahsulotlarini targ‘ib qilish va sotish.

Transport va logistika – yo‘llarni rekonstruksiya qilish, yangi yo‘nalishlar ochish, transport tizimini modernizatsiya qilish.

Axborot texnologiyalari – raqamli turizm platformalari, onlayn xizmatlar va sun‘iy intellekt yordamida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish.

Ushbu yuqorida shakllantirilgan klasterlar va iqtisodiy integratsiya jarayonlarini inobatga olgan holda Qashqadaryo viloyatida turizm klasterlarini rivojlantirish va iqtisodiy integratsiya modeli ishlab chiqildi. Model turizm klasterlarini rivojlantirish orqali Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan va u uyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Turizm klasterlarini shakllantirish – tabiiy, madaniy va tarixiy resurslarga asoslangan turistik hududlarni birlashtirish.

Iqtisodiy integratsiya – mahalliy tadbirkorlar, xorijiy investorlar va davlat qo‘llab-quvvatlovi orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish.

Qishloq xo‘jaligi va turizm sinergiyasi – ekoturizm va agroturizm orqali qishloq hududlarini jonlantirish.

Infratuzilma rivojlanishi – transport, mehmonxona, restoran va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini kengaytirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sir – yangi ish o‘rinlarini yaratish, mahalliy aholining daromadlarini oshirish va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish.

Modelning iqtisodiyotga va uni integratsiyalashtirishga qanday tasiri bor ekanligini tushunishimiz uchun quyidagi jadvalga qarshimiz lozim bo‘ladi(2-jadval)

2-jadval. Turizm klasterlarining iqtisodiy ta‘siri¹.

| Komponent | Tavsif | Iqtisodiy Ta‘sir |
|------------------------|--|---|
| Infratuzilma rivoji | Yo‘llar, mehmonxonalar va servis xizmatlari | Turist oqimi oshishi, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish |
| Mahalliy iqtisodiyot | Mahalliy tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish sektori | Iqtisodiy daromad oshishi, tadbirkorlik imkoniyatlari |
| Ish o‘rinlari yaratish | Turizm sohasida yangi ish joylari | Ishsizlik kamayishi, daromad manbalarining ko‘payishi |
| Ekologik barqarorlik | Ekoturizm va tabiiy resurslarni saqlash | Barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni saqlash |

Ushbu model turizm klasterlari orqali Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Xususan, turizmning mahalliy tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi va infratuzilma bilan integratsiyalashuvi natijasida hududda iqtisodiy faollik oshadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda viloyatning investitsiyaviy jozibadorligi ortadi. Natijada, Qashqadaryo viloyatining turizm markaziga aylanishi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishi mumkin.

1 Muallif tomonidan tayyorlandi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Qashqadaryo viloyatida turizm klasterlarini rivojlantirish va iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish orqali hududning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatning boy tabiiy va madaniy merosi, ekoturizm hamda etnoturizm imkoniyatlari yetarlicha darajada ishga solinmayapti. Ayniqsa, transport infratuzilmasi, servis xizmatlari va marketing strategiyalarining sustligi turizm sohasining taraqqiyotiga jiddiy to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish

Yo'llarni ta'mirlash, zamonaviy mehmonxonalar, dam olish maskanlari va gastronomik xizmatlar tarmog'ini kengaytirish orqali sayyohlar uchun qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish zarur.

Mahalliy aholining ishtirokini kengaytirish

Turizm xizmatlari bo'yicha trening va seminarlar tashkil etish, oilaviy mehmonxonalar, qo'shimcha turistik xizmatlar (gidlik, suvenir ishlab chiqarish, agroxizmatlar va boshqalar)ni yo'lga qo'yish orqali aholining iqtisodiy faolligini oshirish mumkin.

Marketing va reklama strategiyasini kuchaytirish

Hududning turistik brendini shakllantirish, uning salohiyatini milliy va xalqaro bozorlarda targ'ib qilish, raqamli marketing (veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, virtual sayohatlar) imkoniyatlaridan keng foydalanish, maxsus turistik paketlarni ishlab chiqish lozim.

Investitsiyalarni jalb qilish

Xususiy sektor va xorijiy sarmoyadorlarni jalb qilish maqsadida qulay biznes muhitini shakllantirish, soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish orqali yangi turizm klasterlarini barpo etish zarur.

Ekologik va barqaror turizmni rivojlantirish

Hududdagi tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ekologik turizm obyektlarini tashkil etish, yashil energiya texnologiyalarini joriy etish va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan turistik faoliyatni yo'lga qo'yish zarur.

Yangi turizm yo'nalishlarini yaratish

Tog' turizmi, agroturizm, sog'lomlashtirish turizmi, sport va ekstremal turizm kabi innovatsion yo'nalishlarni shakllantirish orqali sayyohlar oqimini ko'paytirish va mavsumiy cheklovlarni bartaraf etish mumkin.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish orqali Qashqadaryo viloyatida turizm sohasining iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va iqtisodiyotning diversifikatsiyasi ta'minlanadi. Shu bilan birga, viloyatning o'ziga xos tabiiy va madaniy merosi keng jamoatchilikka tanitiladi, ichki va xalqaro turizm markaziga aylanishi uchun zamin yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2024-yil 30-dekabrda 915-son. <https://lex.uz/docs/-7303189>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 8-martda 198-son.
3. Porter, M. E. (1998). "Clusters and the New Economics of Competition." *Harvard Business Review*, Vol. 76, No. 6, pp. 77–90.
4. Iordache, C., Ciochină, I., & Asandei, M. (2010). "Clusters – Tourism Activity Increase Competitiveness Support." *Theoretical & Applied Economics*, 17(5), 99–112.
5. Bathelt, H., Malmberg, A., & Maskell, P. (2004). "Clusters and Knowledge: Local Buzz, Global Pipelines and the Process of Knowledge Creation." *Progress in Human Geography*, Vol. 28, No. 1, pp. 31–56.
6. O'zbekiston Milliy Atlasi, II tom, 2022-yil 21-iyul.
7. Zhou, Y., Li, Y., & Xu, C. (2020). "Land Consolidation and Rural Revitalization in China: Mechanisms and Paths." *Land Use Policy*, 91, 104379.
8. Yang, J., Yang, R., Chen, M. H., Su, C. H. J., Zhi, Y., & Xi, J. (2021). "Effects of Rural Revitalization on Rural Tourism." *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 47, 35–45.
9. Yang, Y., Bao, W., Wang, Y., & Liu, Y. (2021). "Measurement of Urban-Rural Integration Level and Its Spatial Differentiation in China in the New Century." *Habitat International*, 117, 102420.
10. Han, W., Wei, Y., Cai, J., Yu, Y., & Chen, F. (2021). "Rural Nonfarm Sector and Rural Residents' Income Research in China: An Empirical Study on the Township and Village Enterprises after Ownership Reform (2000–2013)." *Journal of Rural Studies*, 82, 161–175.
11. Gutiérrez, J., García-Palomares, J. C., Romanillos, G., & Salas-Olmedo, M. H. (2017). "The Eruption of Airbnb in Tourist Cities: Comparing Spatial Patterns of Hotels and Peer-to-Peer Accommodation in Barcelona." *Tourism Management*, 62, 278–291. <https://doi.org/10.1016/j.tourman.2017.05.003>
12. Zhang, H., Zhang, J., Lu, S., Cheng, S., & Zhang, J. (2011). "Modeling Hotel Room Price with Geographically Weighted Regression." *International Journal of Hospitality Management*, 30(4), 1036–1043.



13. Egan, D. J., & Nield, K. (2003). "The Economic Impact of Tourism – A Critical Review." *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 10(2), August, pp. –
14. Durbarry, R. (2002). "The Economic Contribution of Tourism in Mauritius." *Annals of Tourism Research*, 29(3), 862–865.
15. Delgado, M., Porter, M. E., & Stern, S. (2015). "Defining Clusters of Related Industries." *Journal of Economic Geography*, 16(1), 1–38.
16. Kachniewska, M. (2013). "Towards the Definition of a Tourism Cluster." *Journal of Entrepreneurship, Management and Innovation*, 9(1), 33–56.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>